



The Common Motif of Tragic Love in the Works of Alisher Navoi and William Shakespeare

Muazzam Altmishbayevna Dedaxanova

Annotation:

This article compares the works of two great writers in the history of world literature: Alisher Navoi and William Shakespeare. In their work, the similarities in the tragedy of love, despite the differences in linguoculturological, linguopragmatic, and the spirit of the time, are remarkable for their interdependence. Because social life, reality can become obsolete over time, but the theme of love, the human psyche, the character is timeless. Given the urgency of issues related to human psychology today, the article focuses on this topic.

Keywords:

ordinary people's love, pure love, divine love, tragedy, comparative method, perfect human upbringing, psyche, character.

Information about the authors

Muazzam Altmishbayevna Dedaxanova

*Doctor of Philosophy in Philology (PhD)
Teacher of Uzbekistan State University of World Languages
Tashkent, Uzbekistan*

INTRODUCTION

Alisher Navoiy o'zbek adabiyotidagina emas, balki butun turkiy xalqlar, hatto jahon adabiyoti tarixida munosib o'rin tutgan iste'dodlar silsilasiga mansub buyuk shaxsdir. Husayn Boyqaro o'z "Risola"sida shoir ijodiga, xususan, "Xamsa" asariga baho berib, shunday deydi: "...turk tilining o'lgan jasadig'a Masih anfosini bila ruh kiyurdi va ul ruh topqonlarga turkiy oyin alfoz tor-u pudidan to'qulg'on hulla va harir kiydurdi" [4]. Navoiy nafaqat qoldirgan merosining soni va hajmiga ko'ra, balki asarlarining mazmuni, yuksak badiiyatiga ko'ra ham tengsiz shoirdir. U chin ma'noda ijodkor inson, kashfiyotchi olim, teran mushohadali tarixchi, ulug' mutasavvuf, aruz ilmining nuqtadoni, she'riyat mulkining sultoni hisoblanadi.

Alisher Navoiy Sharq adabiyotida betakror bo'lganidek, ingliz shoiri, buyuk dramaturg, iste'dodli shoir, tengsiz aktyor Vilyam Shekspir G'arb adabiyotining tengsiz iste'dod sohibi edi. Londonlik tanqidchi F.Meres "Aql xazinasi" (1598) kitobining "Ingliz shoirlari haqida mulohazalar" qismida ta'kidlaganidek: "Plavt va Seneka rimliklar uchun komediya va tragediya borasida tengsiz bo'lgani singari Shekspir inglizlar uchun pyesaning har ikki turida ham beqiyosdir" [6: 292].

Asosiy qism. Alisher Navoiy va Vilyam Shekspirdek ikki buyuk ijodkor asarlarida fojia mavzusi uyg'unligini qiyosiy metod orqali beixtiyor ilg'ashimiz tabiiy. Chunki "adabiyot hayotning in'ikosidir" [5: 9]. Oddiygina misol, "Layli va Majnun" Sharq adabiyotidagi eng qayg'uli doston hisoblansa,



“Romeo va Julietta” G‘arb adabiyotida eng g‘amgin tragediya(fojia)dir. Hatto mutaxassislar “Layli va Majnun” dostonini Botishdagi ushbu tragediyadan ham mashhurroq, deya e’tirof etadilar [1].

“Mahbub ul-qulub” asarida A.Navoiy ishqni uchga bo‘ladi: avom ishq, xavoss ishq, siddiqlar ishq [3: 36-38]. Avom ishq – bu yuzaki sevgi-muhabbat bo‘lib, yigit va qizning shunchaki bir-biriga bog‘lanib qolishi yoki kimdandir rashk qilib, yoinki kimgadir qasddan shar‘iy nikohga olingunga qadar bo‘lgan iliq munosabatdir.

Xavoss, ya’ni xos ishqda esa insonning insonga muhabbati Allohga bo‘lgan muhabbat uchun ko‘prik vazifasini o‘taydi. Navoiy uni shunday izohlaydi: “...xos ishqqa mansub shaxslar pok ko‘zni pok niyat bilan pok yuzga soladilar va pok ko‘ngil u pok yuzning shavq-zavqi bilan beqaror bo‘ladi. Va bu pok yuz vositasi bilan pok oshiq haqiqiy mahbubning jamolidan bahra oladi” [3: 37]. Bu toifadagi oshiqlar uchun visol emas, ishqning o‘zi—maqsad. Tasavvufda majoz va haqiqat degan tushuncha bor. Unga ko‘ra, dunyo go‘zalliklari ilohiy go‘zallikning belgilarigina xolos. Zotan, dunyoning o‘zi Allohning tajallisidir. Har jihatdan, nihoyatda mukammal yaralgan inson o‘zida haqni mujassam etadi. Demak, unda ilohiylik bor. Xos ishq dunyoga mana shu nuqtayi nazardan qarash bo‘lib, oshiq yorining qiyofasida Alloh jamolini ko‘radi.

Ishqning uchinchi turi oliy — Alloh jamoliga eltuvchi bosqichdir. Mazkur siddiqlar ishq valiyilar, ya’ni avliyolardan yuqori, ammo nabiy(payg‘ambar)lardan pastroq martabadagi yetuk shaxslarning yaratganga bo‘lgan beg‘araz muhabbatlarini ifodalaydi.

Muhokama va natijalar. Alisher Navoiy va Vilyam Shekspir asarlarini yuqoridagi ishq talqini misolida tadqiq etadigan bo‘lsak, quyidagi holatni ko‘ramiz: “Sab‘ai sayyor” dostonida yetti iqlim shohi Bahromning Diloromga; shu dostonning 5-hikoyatidagi qaroqchi Jobirning Mehrga; “Farhod va Shirin” dostonida Xisrav va uning o‘g‘li Sheruyaning Shiringa bo‘lgan havasi oqibatida fojia yuz beradi. Bu mojaroga sabab – ishtiyoq uyg‘otgan tuyg‘ular avom ishqiga mansubligidir. Jumladan, “Otello” tragediyasida Otelloning Dezdemonaga muhabbati zamirida ham shu mohiyatni ko‘ramiz. Negaki Bahrom, Jobir, Xisrav, Sheruya va Otello obrazlarida xudbinlik mavjud, ular uchun sevgilisining quvonchi, ko‘ngli kimdaligini bilishning zarracha ahamiyati yo‘q. Shu sabab “men yoqtirdimmi, demak, u ham faqat meni yoqtirishga majbur, boshqani tanlashga haqli emas” qabilida ish tutilishi natijasida, hatto bu masala qizning o‘limi bilan yakunlanishi mumkin, degan fikr ham ularni qayg‘uga solmaydi.

Ushbu qahramonlar muhabbatidagi fojining negizida insoniyat paydo bo‘lganidan beri yonmayon yashayotgan ezgulik va yovuzlik, olijanoblik va pastkashlik, xiyonat va sadoqat, jinoyat va ishonch kabi ziddiyat o‘rtasidagi kurash tasvirlanadi. A.Navoiy ham, V.Shekspir ham odamni har jihatdan barkamol, nuqsonlardan holi, inson degan ulug‘ nomga munosib ko‘rishni istaydi. Asarda o‘tkinchi manfaat, hokimiyatni ko‘zlash yo‘lida qabihlik qilgan kimsalar taqdirining o‘zaro kesishgan nuqtalari mahorat bilan tasvirlanadi.

Shuningdek, shoh Bahrom va general Otello obrazlarida yana bir o‘xshashlik mavjud: yori o‘z oldida ekan, qadriga yetmaydi, uni yo‘qotgach esa, yashashga ishtiyoqi qolmaydi. A.Navoiy Bahrom timsoli orqali oshiqlik va shohlik bir odamda mujassam bo‘la olmasligiga ishora qiladi. U shohlik g‘ururi bilan kibri yengolmay, yoridan osongina voz kechgan bo‘lsa, oshiq bo‘lgach, mamlakat taqdirini unutadi:

*Ishq ila shohlig‘ muvofiq emas,
Ishq lofida shoh sodiq emas [2].*



General Otelloda ham g'urur kuchli, manmanlikdan voz kecholmaydi. Tuhmat, g'iybatlarga ishonuvchanligi bois g'urur va nomusi ortida xatoga qo'l uradi:

*Tirik qolsa, boshqalarni yana aldaydi,
Shuning uchun u mutlaqo o'lishi kerak [7: 349].*

Yoridan ajralishi oqibatini bila turib, unga bo'lgan ishonchsizligi tufayli kechirolmaydi:

*Gulni uzib o'z shoxidan, unga qaytadan
Ko'karishlik xosiyatin bera olmayman.
U so'ladi. O'z shoxida bir iskab olay [7: 350].*

Haqiqat ayon bo'lib, xatosini anglagach, Bahrom kabi yana noto'g'ri hukm chiqarib, o'zini o'limga mahkum qiladi.

Xisrav esa sevgini ham jang maydonidek tasavvur qilgani bois faqat Farhoddan g'olib bo'lishni o'ylaydi. Bu masala bamisoli musobaqadirki, yutub chiqish shart, boshqa narsaning qizig'i yo'q unga. Ushbu holat "Otello"dagi alamzada Rodrigoni eslatadi. U boy va yosh bo'lishiga qaramay, Dezdemonaning muhabbatini qozonolmadi, shu sabab hasaddan ko'zi ko'r bo'lib, yoshi katta odamlarga yarashmaydigan pastkashlik bilan mashg'ul bo'lib qoladi.

Yagoning o'z manfaati uchun har qanday razillikdan qaytmasligi bo'lsa, beixtiyor Sheruyani yodga soladi. Ular o'z manfaati yo'lida ko'ngli tusagan ishni qiladigan hasadgo'y kimsalar timsolidir.

Xos ishqqa esa A.Navoiy qahramonlaridan "Lison ut-tayr" dostonidagi Shayx San'onning tarso qizga, "Xamsa"dagi Qaysning Layliga, Farhodning Shiringa bo'lgan tuyg'ularini misol qilish mumkin bo'lganidek, Shekspirning "Romeo va Julyetta"si qahramonlari muhabbati ham buning yorqin ifodasidir. Albatta, Romeo va Julyetta sevgisida G'arb madaniyati, ehtirosga berilish yetakchilik qiladi. Biroq ular ham bu dunyoda bir-birisiz yashashni tasavvur qila olmaydi, sevgilisining quvonchi uchun o'zidan kechib, hamma narsaga tayyor turadi va hatto shu ishq yo'lida o'zini qurbon qiladi. Shuningdek, "Layli va Majnun" hamda "Romeo va Julyetta" qahramonlari fojiasidagi uyg'unlik ota-onalarning qarshiligida ham ochiq namoyon bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlarimiz umumlashmasini quyidagi jadvaldan ko'rish mumkin:

Fojiaga yuz tutgan ishq talqinining qiyosiy jadvali

<i>N^o</i>	Alisher Navoiy	Vilyam Shekspir
1.	"Layli va Majnun" dostoni Sharq adabiyotida	"Romeo va Julyetta" tragediyasi G'arb adabiyotida
	<i>eng qayg'uli asar</i>	
	<i>oila a'zolari qarshiligi masalasi</i>	
2.	"Sab'ai sayyor" dostonida Bahrom, Jobir, "Farhod va Shirin" dostonida Xisrav va Sheruya	"Otello" tragediyasida Otello
	<i>avom ishq sohiblari</i>	
3.	"Sab'ai sayyor" dostonida Bahrom	"Otello" tragediyasida Otello
	<i>g'urur va muhabbat ziddiyati muammosi</i>	



4.	“Farhod va Shirin” dostonida Xisrav	“Otello” tragediyasida Rodrigo
	<i>rad etilgan muhabbatni ko‘tarolmaydigan alamzada</i>	
5.	“Lison ut-tayr”da Shayx San‘on, “Layli va Majnun” Qays, “Farhod va Shirin”da Farhod	“Romeo va Julyetta”da Romeo
	<i>xos ishq sohiblari</i>	

Xulosa. Dunyoning buyuk ijodkorlari o‘rtasida adabiy aloqalar bo‘lish-bo‘lmasligidan qat’i nazar o‘zaro o‘xshashlik bo‘lishi tabiiy hol. Chunki adabiyot, yuqorida ta’kidlaganimizdek, real hayotga asoslanadi. So‘z san’atining qudrati ijodkordan yuksak iste’dod va badiiy mahorat talab qiladi. Maqsad esa kitobxonni real hayotdan boxabar qilish, barkamol insonni kamol toptirishdir. Alisher Navoiy shaxsni yuksak axloqli, ma’naviy boy, komil inson ruhida tarbiyalashni o‘zining bosh maqsadi deb bilgani holda Sharq adabiyotini har jihatdan boyitdi. Shekspir esa Sharqdagi kabi hali asosiy masalaga aylanib ulgurmagan sevgiga sadoqat va xiyonat mavzusining turli qirralarini ro‘yirost ko‘rsatishi bilan G‘arb adabiyoti rivojiga ulkan hissa qo‘shdi.

Demak, bu ikki buyuk shoir pok sevgini ulug‘lash, xudbinlik, pastkashlikdan yiroq bo‘lish, kibr-u havo, manmanlikdan o‘zini tiya bilish, hayot sinovlaridan o‘tishda aql-u tadbir bilan ish tutish masalalarini ko‘trib chiqish orqali ham g‘oyaviy hamohang ijodi bilan adabiyot tarixida mangu iz qoldirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Layli va Majnun”, “Saddi Iskandariy” (<http://www.hozir.org/1-mavzu-alisher-navoiy-hayoti-va-faoliyati-1441-1501-reja.html?page=22>).
2. “Sab'ai sayyor” (“Yetti sayyora”). Kutubxonachi.uz (<http://kutubxonachi.uz/documents/asar/adabiyot/o-zbek/pdf/alisher-navoiy/sab-ai-sayyor-yetti-sayyora/#gsc.tab=0>)
3. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub (www.ziyouz.com kutubxonasi).
4. <http://hozir.org/filologiya-fakulteti-v8.html?page=43>
5. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi: universitet va pedagogika institutlari filologiya fakulteti talabalari uchun darslik (mas’ul muharrir: Naim Karimov). Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 3-nashri. — T.: O‘qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005. — 272 b.
6. Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshibekov J. Adabiyot: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik [mas’ul muharrir: V.Rahmonov]. Qayta ishlangan 4-nashri. —T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2019. — 368 b.
7. Вильям Шекспир. Танланган асарлар. 5 жилдлик, 1-жилд. — Т.: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. —372 б. (www.ziyouz.com kutubxonasi).